

Milliy sertifikat**1-VARIANT****Umid SHOMURODOV**

1. [1.1 ball]

Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) fonogramma, hashorot , halloslamоq
B) betavfiq, daxldor , halizamon
 C) bir zumda, ahli ayol , e’tiroz
 D) bepayon , dastyor , gunohkor

2. [1.1 ball]

Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A) adoyi tamom, abiturient , baravar
 B) foto apparat, hashamat, axtarmоq
 C) daf’atan, daromat , da’vat
D) hardamxayol, ajabtovur, farovon


3. [1.1 ball]

Qaysi gapda qalin so‘zi o‘z ma’nosida qo’llangan?

- A) Dadam uzoqdan kelgan mehmonlar bilan qalin suhbatlashdi.
B) Qizim xamirni qalin yoyma uvol bo‘ladi, axir!
 C) Mastura va Zebo ancha qalin dugona bo‘ladi.
 D) Yangi kelin uchun qalin berish musulmon shariatida keltirilgan.

4. [1.7 ball]

O‘zaro ma’nodoshlik hosil qila oladigan so‘zlarni belgilang.

**1-VARIANT**

oliy

B)

sara buyuk

bemor

C)

hasta sumbat

zubda

D)

achchiq sho'r

5.

[1.1 ball]

Qaysi qatorda qo‘srimcha qo’llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik MAVJUD EMAS?

- A) Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo‘lib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak.
 B) Xalq tarixinining o‘rganishi lozim bo‘lgan ilmgoh, asosan, Xolidiyning xiz matini o‘tash bilan mashg‘ul edi.
 C) Bu dunyoda tug‘ilgan go‘dak besavolsiz dunoyaga kelarkan, uni mashaqqatli hayot kutib turibdi.
D) Ilm samaradorligini oshirish uchun ta’lim vazirligi tinimsiz ishlar olib bormoqda.

6.

[1.1 ball]

Qaysi gapda aql so‘zi “nasihat” ma’nosida qo’llangan?

- A) Aql ko‘kka ko‘taradi, shuni unutmang, nabiralarim!
 B) Insonlar qanchalik aqli, ilmi bo‘lmас ularning ham chegari bor.
C) O‘zidan kattaga aql o‘rgatish yaxshi sifatlari kishining ishi emas.
 D) Odamlarning aqliga monand gaplash, zero bu ulug‘lik belgisi.

7. [1,7 ball]

Qaysi gapda nuqtalar o‘rniga so‘z yasovchi, lug‘aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi qo‘sishimcha qo’llanadi?

- A) Bahslashish ko‘p...ning qo‘lidan keladi, oddiy... suhbat...ishni esa kamdan kam kishi uddalaydi.
- B) Birovni qora...dan oldin doimo uni oqlash imkonи bor-yo‘q...ini o‘yla... kerak.
- C) Faqat odamlar orasida... kishi o‘z-o‘z...ni ang...shga qodir.**
- D) Haddan ortiq yuksak fazilat... ham ba’zan insonni jamiyat uchun yaroq... holga kel...ib qo‘yadi.

8. [2,5 ball]

Har uchala parchada ishtirok etgan fe’l shakllarini aniqlang.

I. Bir kuni chol bechora qo‘li titrab, osh suzib berilgan kosasini tushirib sindirdi.

II. Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo xushnavo bulbul yaratilmagan ekan.

III. Abdulla Avloniy o‘z ishini maktab ochishdan boshladi. Gazeta chiqardi, darsliklar yozdi.

1.xabar maylidagi fe’l;

2.aniq nisbatdagi fe’l;

3.ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘silmasi;

4.sof fe’l;

5. II shaxs birlidagi fe’l;

6. Ravishdosh

A) 1 va 4 B) 2 va 4

C) 1 va 6 D) 2 va 5

9. [1,7 ball]

Berilgan gapda ko‘makchi qanday mazmuniy munosabat ifodalagan?
*Qalam-la men to‘qiyman qo‘shiq,
 U–insonga, elga xizmatim.*

- A) vosita ma’nosida**
- B) fikr mavzusi ma’nosida
- C) tarz, holat ma’nosida
- D) yo‘nalish ma’nosida

10. [1,7 ball]

Berilgan gap haqida XATO fikrni aniqlang.

Boshqa shaxsning kechirmalarini tushunish, o‘zingni uning o‘rnida his qilish masalasiga kelganda esa fan buni inkor etmaydi.

- A) Vositasiz to‘ldirivchi fe’l kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri tobelangan.
- B) Tobe qismi ko‘makchi vazifasida kelgan fe’lli birika qatnashgan.
- C) Aniqlovchining aniqlovchiga tobelanishi kuzatilgan.
- D) Aniqlovchi kesimga kelishik yordamidan tobelangan.**

11. [1,7 ball]

Gapdagi so‘zlarning mazmunan va Grammatik jihatdan bog‘lanishlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

Xalqimiz shoir va donishdir, beba ho hikmatlar ijodkoridir. Ushbu durdona lar xazinasi jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa bo‘lib qo‘siladir.

- A) hikmatlar donishdir, shoir va donishdir
- B) ushbu durdona, munosib bo‘lib
- C) beba ho hikmat, jahon sivilizatsiyasi**
- D) bir xazina, ushbu jahon

12.

[2,5 ball]

Qaysi gaplarda tire o'zaro bir xil punktuatsion qoida asosida qo'yilgan?

-
- 1 Shu hovli-joy, mana shu daraxtlar, kursi, so'ri – hammasi – maniki
- 2 Dadam shu atrofdan — qishloqning chiqaverishidan – do'kon qidirdi.
- 3 O'zim ko'rmadim, – dedi Oftob oyim, – ammo ko'rguchilarning so'zlariga qaraganda o'xshashsiz ko'rkar
- 4 Bulbul chamanni sevar, odam — Vatanni.
- 5 Tabiat inson qo'liga qurol — intellektual axloqiy kuch-qudratni berdi.
- 6 Ustozlar – iroda sohiblari: o'quvchilari yo'lida hamma qiyinchiliklarni yengadi.

1 va 4

B) 4 va 6

C) 2 va 5

D) 3 va 5

13. [1,7 ball]

She'riy parcha haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

*Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.*

- A) Mutloq va muqayyad qofiya qo'llangan.
- B) Yoyiq va yig'iq radif qo'llangan.
- C) M undoshi raviy vazifasini bajargan.
- D) N undoshi raviy vazifasini bajargan.**

14. [1,7 ball]

She'riy parcha haqidagi XATO hukmni aniqlang.

*Ey gul, mani zor etmaki husning chamanida...
Ko'z ochib yumguncha bu gulzor topilmas*

- A) Tanosub sa'nati aks etgan.
- B) Yorni tashbeh asosida tasvirlagan.**
- C) Istiora sa'nati aks etgan.
- D) Gul yorga nido asosida tasvirlagan.

15. [1,7 ball]

"Qo'y endi, ozor berma, kòngli yarimta"
"Asror bobo" hikoyasidagi ushbu jumla kimga tegishli ekanligini aniqlang.

- A)Yodgor
- B)samovorchi
- C)kampir**
- D)Asror bobo

16. [1,7 ball]

"Jayhun ustida bulutlar" asarida Nima uchun Beruniyni Muhammad ibn Ahmad deb atashardi?

- A)Otalari islom dinining mashhurlari edi
- B)Otasining ismi Ahmad
- C) Muhammad uning haqiqiy ismi emas taxallusi
- D)Otasi kim ekanligi noma'lum bo'lganlarga shunday nom berishgan**

17. [1,7 ball]

"Sarviqomat dilbarim" asaridagi quyida parcha haqida to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

Tog'-u toshlarni larzaga keltirib hayqirgim kelardi-yu , nafasim bogzimga tiqilib ,ovoziim chiqmas edi Goyo butun vujudim toshhga aylanib qotib qolgandek edi.

- A) Asal ketib qolganligini bilgach Ilyosning holati.
- B) Tog'da ozboshimchalik qilib pritsepni olib otayotgan da yolda tiqilib qolgan Ilyosning holati.
- C) Oilasining halok bolganini korgan Boytemirning holati.
- D) Avariyadan keyin tasodifan Boytemir va Asal yashayotgan uyg'a borib qolgan Ilyosning holati.**

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Yerning yagona tabiiy yo'ldoshi. Yerdan o'rtacha 384 400 km masofada joylashgan. Oy Yer atrofida g'arbdan sharqqa harakatlanib, biror yulduzga nisbatan to'la aylanish davri uning siderik (yoki yulduz) davri deb ataladi. Bu davr 27,32 o'rtacha Quyosh sutkasiga teng. {1} *Oy orbitasining ekliptika tekisligi bilan kesishish nuqtalari uning chiqish va tushish tugunlari deyiladi.* Oy tugunlari ekliptika bo'ylab Oyning harakatiga qarama-qarshi yo'nalishda (ya'ni g'arbgaga tomon) siljib boradi va 18 yil-u 7 oy (6793 sutka)da ekliptikani to'la bir marta aylanib chiqadi. Oyning biror tugundan chiqib, yana shu tugunga qaytib kelishi orasida o'tgan vaqt ajdar oyi deyilib, u o'rtacha 27,21222 sutkaga tengdir. Quyosh va Oy tutilishlarining davriyligi shu oy bilan bog'liq.

Oy o'z orbitasi bilan o'rtacha $83^{\circ}20'$ burchak tashkil etuvchi o'q atrofida aylanadi. Uning o'z o'qi atrofida aylanish davri (27,32 sutka) siderik oy (davr)ga teng, shu sababli Oy hamma vaqt Yerga bir tomoni bilan "qarab" turadi. {2} *Bu davrlarning bir xil bo'lib qolganligi tasodifiy emas. Yerning tortish kuchi Oyning o'z o'qi atrofida aylanishiga ta'sir ko'rsatib (sekinlatib), million yillar davomida uni Yer atrofida aylanish davriga tenglashtirilgan.*

Oy o'z o'qi atrofida tekis aylangani holda Yer atrofida aylanish orbitasining turli nuqtalarida uning tezligi turlicha bo'ladi, natijada Yerdan qaraganda Oy bir oz tebranib harakatlanganday ko'rindi. Tebranish uzunlama bo'yicha $7^{\circ}54'$, kenglama bo'yicha $6^{\circ}50'$ ni tashkil etadi. Bunday tebranish libratsiya deyiladi.

{3} *Oy shar shaklida bo'lib, radiusi 1737 km, ya'ni 0,2724 Yerning ekvatorial radiusiga teng. Oy sirti maydoni $3,8 - 107 \text{ km}^2\text{ni}$, hajmi — $0,0743 = /49$ Yer hajmini tashkil etadi.* Oy sirtidagi nuqtalarning radiusini o'lchash uchun libratsiyaga asoslangan kuchsiz stereoskopik effektdan foydalilanildi. Libratsiyani o'rganish Oy ellipsoidining bosh yarim o'qlari farqini aniqlashga imkon berdi. Oyning qutbiy o'qi Yerga yo'nalgan ekvatorial o'qdan 700 m, Yerga tomon yo'nalishga perpendikulyar yo'nalishdagi ekvatorial o'qdan esa 400 m kichik. Shunday qilib, Yerning tortish kuchi ta'sirida Oy shaklida Yerga yo'nalgan qabariqlik hosil bo'lgan. Yerdan uchirilgan sun'iy yo'ldoshlar harakat trayektoriyalarini o'rganish asosida Oy massasi eng aniq hisoblangan: u Yer massasidan 81,3-marta kichik, ya'ni 7,35-1025 g. O'rtacha zichligi $3,34 \text{ g/sm}^3$ ($0,61$ Yer o'rtacha zichligi)ga teng. {4} *Oyni yana bir o'ziga xos xususiyati shuki, uni yerdan qaraganda ozroq tebranib harakatlangan kabi namoyon bo'ladi.* Og'irlilik kuchining tezlanishi, Oy sathida Yerdagidan 6-marta kichik, ya'ni $162,3 \text{ sm/s}^2$ bo'lib, Oy sathidan har bir km ko'tarilgan sari $10,187 \text{ sm/s}^2$ ga kamayib boradi. Oyda birinchi kosmik tezlik 1680 m/s , ikkinchi kosmik tezlik 2375 m/s . Oyning tortish kuchi kichik bo'lganligi sababli, uning atrofida gaz qobig'i va erkin holdagi suv bo'lishi mumkin emas.

Oy sirti birmuncha qora-oq rangda, uning albedosi (nurni qaytarish darajasi) 0,073, ya'ni Quyoshdan tushayotgan nurlarning faqat 7,3% ini qaytaradi. Oyning Yerdan o'rtacha uzoqlikdagi ko'rindagi yulduz kattaligi 12,7. To'lin Oy Quyoshga qaraganda 465000-marta xira. Oyning o'z o'qi atrofida Quyoshga nisbatan bir marta to'la aylanish davri sinodik oy deyilib, u 29,53059 sutkani tashkil etadi. Oyning boshqa fazalarida esa uning yoritilishi yanada kam.

- 18.** [1,7 ball]
 Matn mazmuniga ko'ra to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang.
 A) Yerning yagona tabiiy yo'ldoshi oydir.
 B) Oy Yer atrofida sharqdan g'arbgaga harakatlanadi.
 C) Oy sirti to'lig'icha qora-oq rangda
 D) Oyning yer atrofida aylanish davri (27,32 sutka) siderik oy (davr)ga teng,

- 19.** [1,7 ball]
 Raqamlab ko'rsatilgan qaysi gap matnnning mazmuniy tuzilishida uslubiy xatolikni yuzaga keltirgan?
 A) 4 B) 2 C) 1 D) 3
20. [1,7 ball]
 Matn mazmunida aks etgan ma'lumotni

Milliy sertifikat	1-VARIANT	Umid SHOMURODOV
<p>aniqlang.</p> <p>A) Yerning tortish kuchi ta'sirida Yer shaklida Oyga yo'nalgan qabariqlik hosil bo'lgan.</p> <p>B) Oy yulduzga nisbatan to'la aylanish davri uning sinodik (yoki yulduz) davri deb ataladi.</p> <p>C) Oy sirtidagi nuqtalarning radiusini o'lchash uchun libratsiyaga asoslangan kuchsiz stereoskopik effektdan foydalilaniladi.</p> <p>D) Oy tebranish bo'yicha kenglama $7^{\circ}54'$, uzunlama bo'yicha $6^{\circ}50'$ ni tashkil etadi.</p>		<p>B) Oyning biror tugundan chiqib, yana shu tugunga qaytib kelishi orasida o'tgan vaqt ajdar oyi deyiladi.</p> <p>C) Oy sirtidagi nuqtalarning radiusini o'lchash uchun libratsiyaga asoslangan kuchsiz stereoskopik effektdan foydalilaniladi.</p> <p>D) Quyosh va Oy tutilishlarining davriyiligi ajdar oyi bilan bog'liq emas.</p>
<p>21. [1,7 ball]</p> <p>Matn mazmuniga ko'ra noto'g'ri ifodalangan ma'lumotni aniqlang.</p> <p>A) Oyning Yerdan o'rtacha uzoqlikdagi ko'rinma yulduz kattaligi 12,7.</p>		<p>22. [1,7 ball]</p> <p>Quyidagi qaysi ma'lumot to'g'ri?</p> <p>A) Yerning tortish kuchi Oyning o'z o'qi atrofida aylanishiga ta'sir ko'rsatmaydi.</p> <p>B) Oy ma'lum vaqt Yerga bir tomoni bilan "qarab" turadi.</p> <p>C) Oy shar shaklida bo'lib, radiusi 1737 m teng</p> <p>D) To'lin Oy Quyoshga qaraganda 465000-marta xira.</p>

Matnni o'qing va quyidagi savolga javob bering.**O'g'ri**

Kampir tong qorong'isida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O!.. Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kizni topish uchun necha zamonlar qozonni suvgaga tashlab qo'yish kerak bo'ladi. Kampir dod soldi. Odamlar dod ovoziga o'rjanib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og'il eshi gi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilibbukilib ketadi, ko'zlarini javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi. Xotinlar o'g'rini qarg'aydi, it huradi, tovuqlar qaqqag'laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga aql ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi. Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi kirdi. **[1] U og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi, so'ngra Qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi: – Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.** Uning og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishlagan edi, bu so'zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig'lab yubordi. – Xudo xayr bersin... Ola ho'kiz edi... Odamlar o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to'g'risida bahslasha bahslasha tarqaldi. G'ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig'idan to'xtab, ellikboshini duo qila ketdi. Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Qobil bobo qo'l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig'lar edi. – Yig'lama, yig'lama, deyman! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi. Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu «Xudo yallaqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da.

Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum. Poshsholikdan oylik yema sa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi. Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo'lidi. Quruq qoshiq og'iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo'ladi? Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz. Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shu ning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas. Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldji.

- Ha, sigir yo'qoldimi?
- Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.
- Ho'kizmi? Ho'kiz ekan-da. Hmm... Ola ho'kiz? Tavba...
- Bor-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi... Amin chinchalogsini ikkinchi bo'g'inigacha burniga tiqib kuldji.
- Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?
- Ola ho'kiz...
- Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?
- Qo'sh mahali...
- Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?
- Bisotimda hech narsa yo'q...
- O'zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin! Qobil bobo yerga qarab tek qoldi. – Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalogsini etigining ostiga artib. – Suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi? Aminning bu gapi Qobil boboga «Ma, ho'kizing», – deganday bo'lib ketdi. – Kam bo'lmanq, – dedi pulni uzatib, – yana xizma ti ngiz da man. – Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi. Bir hafta o'tdi. Bu bir hafta ichida kampir «duoning zo'ri bilan qulf ochadigan» azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq1 jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchini kuni Qobil bobo yana aminning oldiga

bordi. Aminning tepe sochi tikka bo'ldi: – [2] ***Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da!*** Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi! Qobil bobo yordostlar bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan. Uchta tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil bobo ning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-bi rodarlar o'zaro yig'ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o'tib bo'lmasdi. Tilmoch tortiqni oldi va beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da qildi. Cholning butun bo'g'lnlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi? «O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan». «Yaxshilab tushuntirilgan» pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pul olganidan keyin Qobil boboning baxtiga: «Beto'xtov hokimga xabar beraman», – demasdan: «Aminga bor», – deb qo'ya qoldi. Amin: «Ellikboshiga borilsin», – dedi. – Gumaningizni ayting bo'lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo'lib. – Kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olga n odam allaqachon so'yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erin masangiz ko'nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; Xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi... – Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da. Peshonam sho'r bo'lmasa... – dedi chol yerga qarab. – Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi? Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...

23

[1,1 ball]

Asar nomi orqali qanday badiiy masad ifodala etilgan?

- A) O'sha davrda avj olgan o'g'irliliklar ochib berilgan.
- B) **Mansabdor shaxslarning xalqni talashi mansabini suiiste'mol qilishi tasvirlangan.**
- C) Qobil boboning ho'kizi yoqolishi ko'plab kulgilarga sabab bo'lishi tasvirlangan.
- D) Birdan bir boyligi ho'kiz bo'lgan va undan ham juda bo'lgan kampir tasvirlangan.

24.

[1,1 ball]

Ellikboshi obraziga mos BO'L MAGAN ta'rif berilgan qatorni aniqlang.

- A) **Qobil boboga yaxshilik qilgan va shart evaziga unga ho'kiz bergen obraz.**
- B) Yangi lavozimga ega chiqish uchun pora bergen obraz.
- C) Qobil boboga ho'kizi topilishi haqida uni tinchlantirib undan nimadir umidvor bo'lgan obraz.
- D) Mahallada burunsiz deb ta'riflangan bir

paxtafurushning kuyovi bo'lgan obraz.

25.

[1,1 ball]

Amin obraziga mos ta'rif berilgan qatorni aniqlang.

- A) Unga beginmugacha beli sinadi degan ta'rif berilgan.
- B) **Unga berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz deya ta'rif berilgan.**
- C) Lavozim uchun qanchadan qancha pora bergen va shuni to'ldirish uchun uringan qahramon.
- D) Xudo urgan hech qachon to'ymaydigan deya ta'rif berilgan obraz.

26.

[1,1 ball]

[1] raqam bilan ajratib ko'rsatilgan holat qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) Ho'kizni kim o'g'irlaganini bilagani va topilishini izohlagan.
- B) Qobil boboni tinchlantirish va uni yig'idan to'xtatish uchun aytilgan gap.

C) Qobil bobodan ho'kiz toppish evaziga
biror narsa berishini izohlagan holat.
D) Ho'kizni qayerda ekanligini izohlagan
holat.

27.

[1,1 ball]

[2] raqam bilan ajratib ko'rsatilgan so'z
gapda qanday uslubiy ma'no ifoda
etilgan?

- A) zarda, jahl B) **kinoya, piching**
C) alam, istirob D) ta'na, shikoyat

G'azalni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Zulfung ochilib, orazi diljo‘ bila o‘ynar,
Hindubachae sho‘xdurur, suv bila o‘ynar.

Ul sho‘x ko‘ngul lavhin etib tiyra nafasdin,
Bir tifldur, alqissaki, ko‘zgu bila o‘ynar.

O‘ynay-o‘ynay bog‘ladi uyqumni fusundin,
1 To g‘amzasi2 ul nargisi3 jodu4 bila o‘ynar.

Tong yo‘qliki, ko‘zung bo‘lsa ko‘ngul birla muloyib,
5 Majnuniga ajab yo‘q, agar ohu bila o‘ynar.

ir lo‘liyi bozigar 6 erur chanbar ichinda
Xolingki, o‘shul halqayi gesu bila o‘ynar,

Zohid bila nafs etsa tamaskur, ne ajabkim,
It sayr qilur vaqtda tulku bila o‘ynar.

Mug‘ dayrida7 mast o’lsa, Navoiyni ko‘rungkim,
Bir olma kibi gunbazi miynu bila o‘ynar.

Lug‘atlar: 1 Fusun-afsun 2 G‘amza- qosh 3 Nargis - ko‘z 4 Jodu - afsun 5 Muloyib - o‘ynamoq 6 Bozigar- o‘ynab tomosha ko‘rsatuvchi 7 Mug‘ dayri - mayxona

28.

[2,5 ball]

G‘azal matla’si haqida NOTO‘G‘RI ma’lumotni aniqlang.

- A) Shoир yor zulfini hindu boladek o‘ynovchi oshiqqa o‘xshatadi.
- B) Yor zulfi xursandligidan hindubachadek o‘ynashi tasvirlanmoqda.
- C) Shoир zulfnii hindubachaga mengzash orqali, uning qoraligini ta‘kidlamoqda.
- D) Shoир yorni suvdek pokligini ta‘riflab, uning o‘ynab oqishini hindubachaga o‘xshatadi.**

29.

[2,5 ball]

2-bayt mazmuni haqida AKS ETGAN fikrni aniqlang.

- A) Yor o‘zining nafasi bilan oshiq ko‘nglini xira etganini, bola oynani xiralashiga tashbehanadi.**
- B) Oshiq ko‘ngli yor nafasidan parcha-parcha bo‘lib azoblanayotgani akslanadi.
- C) Oshiq ko‘ngli oynadek zaif ekanligi ta‘kidlanib, yor qahridan singani bayon qilinadi.

D) Yor ko‘zguga qarab rom qiluvchi afsungarga mengzaladi.

30.

[2,5 ball]

G‘azal maqta’si to‘g‘ri izihlangan qatorni belgilang.

- A) Ushbu baytda talmeh san‘atidan foydalanib oshiq holati akslanadi.
- B) Ushbu baytda tashbeh san‘ati yordamida mayxona tasviri ochib berilgan.**
- C) Ushbu baytda shoир Nido yordamida oshiqqa murojaat qiladi.
- D) Ushbu baytda istiora san‘ati mohirlik bilan qo’llanadi.

31. [2,5 ball]

4-bayt mazmuni to‘g‘ri izohlangan qatorni aniqlang.

- A) Shoir ko‘zning ko‘ngil bilan o‘ynashishini, Majnunning ohu bilan o‘ynashishiga o‘xshatadi.
 B) Shoir agar yor ko‘zi ko‘ngil bilan o‘ynashmasa tong otmasligini, qorong‘ulik bo‘lishini ta‘kidlaydi.
 C) Shoir o‘z ishqini majnun ohuni sevib, u bilan o‘ynashishiga o‘xshatadi.
 D) Yor ko‘zi oshiq ko‘ngli bilan muloyim munosabat qiladi, go‘yo ohudek.

32. [2,5 ball]


6-bayt mazmuni to‘g‘ri izohlangan qatorni aniqlang.

- A) Yorning yuzini oyga qiyoslab tashbehlantirgan.
 B) Dunyodan kechgan insonning nafsi jilovlaganini izohlagan.
 C) Yorning jamolini kun-u tun kutganini izohlagan.
 D) Yorning qosh-ko‘zlarini xuddi afsunga o‘xshab asir qilganini izohlagan.

Gaplar (33, 34, 35) va sintaktik tahlilga oid izohlar (A – F) ni o‘zaro to‘g‘ri moslashtiring.

Gaplar	Javoblar
33. [1,7 ball] Qachongacha ko‘kdan chalpak kutadursan, qachongacha qorning o‘ylab yotadursan!	a) kiritmali gap b) shaxsi (egasi) ma’lum gap c) egasi yashiringan gap d) ajratilgan bo‘lakli gap e) uyushgan bo‘lakli gap f) to‘liqsiz gap
34. [1,7 ball] Musulmon olamining eng buyuk mutafakkiri— Imom Buxoriyday hadisshunos borligi biz uchun baxt.	
35. [1,7 ball] Viqor deb kibr va g‘ururdan, manmanlikdan o‘z fe‘lini saqlamoqqa aytilar.	

36. Ajratib ko‘rsatilgan har uchala so‘z bilan ma’nodoshlik hosil qila oluvchi so‘zni yozing.



[1,7 ball]

Javob _____

yaqin

37. Berilgan gapda qo'llanishi kerak bo'lgan tinish belgilarining to'g'ri ketma-ketligini yozing.

Nazariy bilimlardan hosil qilinadigan tushunchalar uzoq va chiqur tushunish tekshirish kashf ijod ta'lim olish va boshqalarga ta'lim berish yo'li bilan qo'lga kiritiladi

[2,5 ball]

javob _____ , , - , .

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

38. Gapda qaysi qo'shimcha qo'llash bilan bog'lik uslubiy xatolik kuzatilgan?

O'zini eski mahramiga ko'ngli to'lmay boshqa bir o'yinchi, ashulachi, serhusnli bir mahram topmoqchi va o'zining bu mashhur mahrami bilan dong', shuhrat chiqarmoqchi!

[1,7 ball]

javob _____ kelishik , so'z yasovchi

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

39. Gapni sintaktik tahlil qiling va qaysi gap bo'lagi uyushganini yozing.

Olim kishi o'zini o'ylamasligi, obro'si va shanini yo'qotib qo'ymasligi kerak, bu uchun esa tez va mulohazakor bo'lishi talab qilinadi.

[1,7 ball]

javob _____ ot kesim, ega, to'diruvchi

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chiring.

40. Gapdagi so'zlarning mazmunan va grammatik jihatdan bog'lanishlarni tahlil qiling.

U bolakayni sevintirish, uning kayfiyatini ko'tarish uchun shunday qilgan edi, lekin onasi buni o'zgacha tushindi.

[1,2 ball]

a) gapda ajratib ko'rsatilgan so'z tobelanib bog'langan so'z yozing.

javob _____ kesim

[1,3 ball]

b) gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z bilan teng munosabatda bog'langan so'z yozing.

javob _____ kayfiyatini ko'tarish

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chiring.

41. Berilgan gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri bog‘lang.

1. *Hamisha to‘g‘rilar yonida bo‘linglar.*

2. *ular hech qachon sizni noto‘g‘ri yo‘lga boshlamaydi.*

[0,8 ball]

a) birinchi va ikkinchi gapni qanday grammatik vosita yordamida to‘g‘ri bog‘lash mumkin?

javob _____ chunki, negaki

[0,9 ball]

b) natijada qo‘shma gapning qaysi turi hosil bo‘ladi?

javob _____ ergashgan qo‘shma gap

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chiring.

42. She’riy parchadagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z yordamida ifodalangan she’riy san’atlarni aniqlang va yozing.

*Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bukun Ya’qubtek bayt ul-hazanda.*

[0,8 ball]

a) birinchi she’riy san’at

javob _____ nido

[0,9 ball]

b) ikkinchi she’riy san’at

javob _____ talmeh

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chiring.

43. She’riy parchaning qofiyalarini tahlil qiling va yozing.

*Mendek senga bir zori vafodor topilmas,
Sendek menga bir yori jafokor topilmas.*

[0.8 ball]

a) ajratib ko‘rsatilgan qofiyadosh so‘zlardagi raviyni yozing.

javob _____ O

b) ajratib ko'rsatilgan so'zlar qofiyaning qaysi turi shakllantirgan?

javob _____ **mutlaq qofiya**

44. Quyidagi qit'a mazmunini tahlil qiling va savollarga javob yozing.

*Tengri xonin ochuq aqida qilib,
Xalqdin ro'ziy istagan gumroh
Uyladurkim tengiz qirog'inda
Ro'za ochmoqqa kimsa qozg'oy choh.*

[0,9 ball]

a) qit'ada qanday illat qoralangan?

javob _____ **noshukur bo'lish haqida**

[0,8 ball]

b) qit'ada qanday fazilat ulug'langan?

javob _____ **allohga bo'lgan ishonch**

Diqqat! Javoblaringizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

45. ESSE

Quyidagi vaziyat yuzasidan o'z munosabatingizni yozma bayon qiling.

*Hozirgi kunda ijtimoiy-tarmoqlar haqida ko'plab kishilar salbiy munosabat bildiradi.
Ayrim kishilar esa ijtimoiy-tarmoqlar kerak deb hisoblashadi.*

- Fikr-mulohazalaringizni publitsistik uslubda bayon qiling.
- Fikrlaringizni mantiqiy izchillikda, adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda ifodalang.

Esse uch tarkibiy qismdan iborat bo'lishi lozim:

I. Kirish. Essening kirish qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) kirish qismi ikki-uch jumladan iborat bo'lishi lozim;
- 2) berilgan vaziyat matnini aynan ko'chirmang.

II. Asosiy qism. Essening asosiy qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qism kamida uchta xatboshidan iborat bo'lishi lozim, har bir xatboshida tomonlarning qarashlari va shaxsiy qarashlaringizni batafsil yoriting;
- 2) berilgan vaziyat yuzasidan turli qarashlarni hayotiy misollar bilan dalillang;
- 3) shaxsiy mulohazalaringizni batafsil va dalillar asosida yoriting;
- 4) bayon qilinayotgan barcha fikr-mulohazalar faqat mavzu doirasida bo'lishi lozim.

III. Xulosa. Essening xulosa qismini yozishda quyidagilarga amal qiling:

- 1) asosiy qismda ifodalangan fikr-mulohazalarini umumlashtiring;
- 2) xulosa ikki-uch jumladan iborat bo'lishi lozim.

DIQQAT! Esse uchun reja tuzilmaydi, epigraf qo'yilmaydi.

[24 ball]